O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 29 - iyul 440-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyuldagi 396-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida.

Milliy qonunchilik bazasini ortiqcha normativ-huquqiy hujjatlardan holi etish, uning tizimliligini ta’minlash, huquqni qo‘llash amaliyotida yuridik ta’sir kuchiga ega bo‘lmagan hujjatlarni bekor qilish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-apreldagi 6218-sonli va “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 17-martdagi 89-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2- iyuldagi 396-sonli “Qonunchilik bazasini yanada tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori ijrosini ta’minlash maqsadida qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 30-apreldagi 6218-sonli va “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 17-martdagi 89-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyuldagi 396-sonli “Qonunchilik bazasini yanada tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorilari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlari quyidagi asoslarga ko‘ra o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin:

- qarorlarga keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir xil normalarning mavjudligi;

- qarorlarda belgilangan normalarning keyinroq qabul qilingan qonunchilik hujjatlari normalariga zid kelib qolganligi;

- Qarorning qabul qilinishiga asos bo‘lgan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatlarining bekor qilinganligi natijasida o‘z dolzarbligini yo‘qotganligi;

- qarorlar bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan boshqa qarorlarning o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilganligi;

- qarorlarda belgilangan bir martalik, vaqtinchalik bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlarning ijrosi ta’minlanganligi.

3. Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi:

- idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazib, javobgarlik, qo‘shimcha to‘lov va yig‘imlarni belgilash, ortiqcha ma’muriy cheklashlarni nazarda tutish, asoslanmagan xarajatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi holatlarni bartaraf etish.

- idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va ulardan foydalanishni to‘liq ta’minlash hamda davlat ro‘yxatidan o‘tmagan normativ-huquqiy hujjatlar qo‘llanish holatlarini oldini olish choralarini muntazam ravishda ko‘rib borsin.

4. Toshkent viloyati Monopoliyaga qarshi kurashish boshqarmasi Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi bilan birgalikda ikki oy muddatda raqobatni rivojlantirish, qurilishga ruxsat berish, elektr tarmoqlariga ulanish va boshqa yo‘nalishlarda inson omilini cheklashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar joriy etilganligi yuzasidan tanqidiy o‘rganish o‘tkazib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Toshkent viloyati hokimi o‘rinbosarlari hamda Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi boshlig‘i Abdimutalib Dadajonov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**